

**O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY
DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/30.12.2019.Tar.01.04 RAQAMLI ILMIY
KENGASH ASOSIDAGI BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI

ALIYEV ANVARJON ORIFJONOVICH

**O‘ZBEKISTONDA AXBOROT TASHUVCHI VOSITALAR TARIXI VA
HUJJATLAR SAQLOVINI TA’MINLASH TAMOYILLARI**

05.01.09 – Hujjatshunoslik. Arxivshunoslik. Kutubxonashunoslik

**tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)

Content of the dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)

Aliyev Anvarjon Orifjonovich

О‘zbekistonda axborot tashuvchi vositalar tarixi
va hujjatlar saqlovini ta’minlash tamoyillari3

Алиев Анваржон Орифжонович

История средств носителей информации в Узбекистане
и принципы обеспечения сохранности документов25

Aliev Anvarjon Orifjonovich

History of information carriers in Uzbekistan
and principles of ensuring the safety of documents49

E’lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ

List of published works.....53

**O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY
DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/30.12.2019.Tar.01.04 RAQAMLI ILMIY
KENGASH ASOSIDAGI BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI

ALIYEV ANVARJON ORIFJONOVICH

**O‘ZBEKISTONDA AXBOROT TASHUVCHI VOSITALAR TARIXI VA
HUJJATLAR SAQLOVINI TA’MINLASH TAMOYILLARI**

05.01.09 – Hujjatshunoslik. Arxivshunoslik. Kutubxonashunoslik

**tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2025.1.PhD/Tar2162 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya O'zbekiston milliy universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy Kengash veb-sahifasi (www.ik-tarix.nuu.uz) hamda "Ziyonet" axborot-ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Abdullayev Abdushukur Hamidovich
texnika fanlari doktori, dotsent

Rasmiy opponentlar:

Ishanxodjayeva Zamira Rayimovna
tarix fanlari doktori, professor

O'rinkulov Odiljon Naziraliyevich
texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Yetakchi tashkilot:


Andijon davlat universiteti


Dissertatsiya himoyasi O'zbekiston Milliy universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2019.Tar.01.04 raqamli Ilmiy kengash asosidagi bir martalik ilmiy kengashning 2025-yil "24" 11 soat 14⁰⁰ dagi majlisida bo'lib o'tadi (manzil: 100174, Toshkent shahri, Mirzo G'olib ko'chasi, O'zbekiston Milliy universitetining tarix fakulteti, 1-qavat, 110-auditoriya.) Tel.: (+99871) 227-12-24; faks: (+99871) 246-53-21, (+99871) 246-02-24; e-mail: nauka@nuu.uz O'zbekiston Milliy universiteti).

787 Dissertatsiya bilan O'zbekiston Milliy universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (raqam bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100174, Toshkent shahri, Universitet ko'chasi, 4-uy. Bosh bino. Tel.: (+99871) 236-46-55, faks: (+99871) 246-02-04.

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil "10" 11 kuni tarqatildi (2025-yil "7" 10 dagi № 28 raqamli reyestr bayonnomasi).




X.E. Yunusova
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash asosidagi bir martalik ilmiy kengash raisi, t.f.d., professor


J.E. Tog'ayev
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash asosidagi bir martalik ilmiy kengash ilmiy kotibi t.f.f.d. (PhD), dotsent


N.U. Musayev
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash asosidagi bir martalik ilmiy seminar raisi, t.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda axborotni hujjatlashtirish tarmoqlari o'zgarishi, raqamlashtirish, mobillashtirish, ish yuritish va arxiv sohalariga sun'iy intellektning joriy etilishi bilan bog'liq muhim davrni boshdan kechirayotgan bir sharoitda arxiv hujjatlarining ishonchliligini ta'minlash, arxiv sohasiga raqamli texnologiyalarni joriy etish muhim vazifalardan biriga aylanmoqda. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi bilan birga axborot oqimlari va resurslarining, jumladan, axborotga bo'lgan ehtiyojning ortib borishi natijasida ularning saqlovini ta'minlash masalalari dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Dunyoning yetakchi ilmiy tadqiqot institutlari, arxiv va kutubxonalarida arxiv ma'lumotlarini hujjatlashtirish hamda raqamlashtirish orqali ulardan foydalanish samaradorligini oshirish masalalari, shuningdek, arxivshunoslik, elektron arxivlar, arxiv fondlarining raqamli nusxalarini saqlash masalalari bo'yicha ilmiy-amaliy tadqiqotlar olib borilmoqda. Shuningdek, tarixiy hujjatlarni o'rganish va ommalashtirish, arxivlar faoliyatining huquqiy asoslarini takomillashtirish, arxivlarning infratuzilmasini modernizatsiya qilish, arxiv ishiga yangi innovatsion texnologiyalarni joriy etish, arxiv hujjatlarini raqamlashtirish bo'yicha ishlarni amalga oshirishga qaratilgan strategik dasturlarni ishlab chiqish zaruriyatini taqozo etmoqda.

Yangi O'zbekistonda tarix fanini yanada rivojlantirish maqsadida arxivshunoslik, arxiv manbashunosligi, hujjatshunoslik sohalarini takomillashtirish, hujjatlarning tarixiy manbaviy ahamiyatini aniqlash, tarixiy hujjatlarning raqamli merosini yaratish masalalariga alohida e'tibor qaratilmoqda. "Milliy tarixni milliy ruh bilan yaratish kerak. Aks holda uning tarbiyaviy ta'siri bo'lmaydi. Biz yoshlarimizni tarixdan saboq olish, xulosa chiqarishga o'rgatishimiz, ularni tarix ilmi, tarixiy tafakkur bilan qurollantirishimiz zarur"¹. Davlat organlarining axborot tizimlari o'rtasida ma'lumot almashinuvini amalga oshirish maqsadida O'zbekiston arxiv muassasalarida elektron hujjatlardan foydalanishni samarali tashkil etish, arxivlarda yaratilgan zamonaviy sharoitlar muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shu munosabat bilan arxiv hujjatlaridan foydalanish imkoniyati hujjatli merosni saqlash bilan bog'liq bo'lib, shu bilan birga, hujjatli axborotni saqlashning umumiy muammolari qatorida hujjatli merosni jismoniy (moddiy) saqlash masalasi bo'yicha tarixiy tadqiqotlar olib borish muhim ahamiyatga ega.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 20-sentyabrdagi PF-5834-son "O'zbekiston Respublikasida arxiv ishi va boshqaruvini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni, 2024-yil 24-maydagi PF-80-son "Ma'muriy islohotlar doirasida adliya organlari va muassasalarining mas'uliyatini yanada oshirish hamda ixcham boshqaruv tizimini shakllantirish to'g'risida"gi Farmoni hamda PQ-4463-son "O'zbekiston Respublikasi "O'zarxiv" agentligi faoliyatini takomillashtirish to'g'risida"gi Qarori va ushbu sohaga oid boshqa me'yoriy-

¹ Mirziyoyev Sh. Milliy tarixni milliy ruh bilan yaratish kerak. Aks holda uning tarbiyaviy ta'siri bo'lmaydi // Xalq so'zi, 2021. 20-yanvar. – № 13 (7793). – B. 1.

huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur ilmiy tadqiqot ishi ma'lum darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot I. "Axborot jamiyati va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" mavzusidagi respublika ilmiy-texnikaviy taraqqiyoti dasturining ustuvor yo'nalishi doirasida yakunlandi.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Bugungi kungacha mavzu doirasida olib borilgan tadqiqotlarni mahalliy va xorijiy kabi turlarga turkumlashtirish mumkin.

Birinchi guruh tadqiqotchilari I.A.Alimov arxivshunoslikning nazariy masalalariga², M.S.Isakova va D.A.Zaitovalar mustaqillik yillarida arxivshunoslik sohasining rivojlanishi, yangi texnologiyalarni joriy etilishi hamda kadrlar tayyorlash muammolariga³, O.Rashidov O'zbekistonda arxiv ishinin tarixiy bosqichlariga e'tibor qaratgan⁴. Shuningdek, M.A.Raxmatullayev kutubxonalarda zamonaviy axborot texnologiyalarini qo'llashda zamonaviy yondoshuvlar⁵, M.M.Ergasheva kutubxonalarda ma'lumotlarni saqlash muammolari va sohada olib borilgan islohotlar⁶, A.X.Abdullayev arxivlarda elektron hujjatlarni saqlash bazalarini yaratish⁷, B.M.Ahmedov va M.D.Abduraximovlar⁸ arxivlarda elektron katalog tizimini yaratish jihatlarini yoritib berishgan, A.Yo.Nazarov esa arxiv hujjatlarining elektron bazasi va kataloglarini yaratish, arxiv sohasida zamonaviy boshqaruv tizimlarini yaratishning nazariy masalalariga e'tibor qaratishgan⁹.

Ikkinchi guruh tadqiqotchilari R.E.Matick kompyuter qurilmalarining saqlash tizimlari, zamonaviy yutuqlari¹⁰, J.Q.Yang, Y.Zhou va S.T.Hanlar hammualliflikda kompyuter ma'lumotlar bazasini saqlash vositalari hamda ularning kelajakdagi turlari haqida¹¹, M.Wilson, Jared Robert Kellerlar blokcheynlar va ularning

² Алимов И.А. Архившunoslik ўқув қўлланма. – Андижон, 2005.

³ Исакова М. Становление и развитие архивного дела в Узбекистане. – Ташкент: Университет, 2012. – 205 с.; Зайтова Д.А. Развитие архивного дела в Республике Узбекистан // ВЕСТНИК АРХИВИСТА, 2019. Январь // (<https://www.vestarchive.ru/arhivovedenie/4017-razvitie-arhivnogo-dela-v-respyblike-yzbekistan.html>).

⁴ Rashidov O. O'zbekistonda arxiv ishi tarixi. – Toshkent: Navro'z, 2019.

⁵ Рахматуллаев М.А. Проблемы и решения в применении информационных технологий в библиотеках Узбекистана // Вестник БАЕ. – М.: Российская государственная библиотека, 2010. – № 1. – С. 68-72.

⁶ Эргашева М.М. Архивное дело в независимом Узбекистане // Научные итоги года: достижения, проекты, гипотезы. – Новосибирск, 2015. – № 5. – С. 52-57.

⁷ Abdullayev A.X., Alimov A.A., Muradov Dj.N., Tulaganov A. Davlat arxivlari hujjatlarining elektron bazalarini yaratish masalalari / "Fan, ta'lim, madaniyat, biznes sohalarida internet va kutubxona-axborot resurslaridan foydalanish" mavzusidagi IV Xalqaro konferensiya. – Farg'ona, 2006. – B. 156-158.

⁸ Ahmedov B., Abdullaev A., Turapov A. Проблемы создания единого электронного каталога государственных архивов и некоторые пути их решения / "Fan, ta'lim, madaniyat va biznesda internet va axborot-kutubxona resurslari" mavzusidagi XI Xalqaro konferentsiya. – Toshkent, 2017. – B. 14-17; Abdurahimov M.D. Эффективность управления архивами Республики Узбекистан // Бюллетень науки и практики, 2016. – № 1 // <https://cyberleninka.ru/article/n/effektivnost-upravleniya-arhivami-respubliki-uzbekistan/viewer>.

⁹ Nazarov A.Y. Raqamli manbalar va elektron arxiv asoslari. O'quv qo'llanma. – Toshkent: Bookmany print, 2023.

¹⁰ Matick R. E. Computer storage systems and technology. – New York: Wiley, 1977. – P. 549-551.

¹¹ Yang J.Q., Zhou Y., Han S.T. Functional applications of future data storage devices // Advanced Electronic Materials, 2021. T. 7. – № 5. – С. 200.

kelajakdagi ko‘rinishlariga oid ma’lumotlarni tahlil etgan¹². Shu qatorda, MDH davlatlari tadqiqotchilari Y.E.Stryukova arxivlarni avtomatlashtirishning zamonaviy yutuqlari va texnologiyalarning joriy etilishi¹³, Viktoriya Lemyo davlat ish yuritish tizimida blokcheyn dasturlarini joriy etish¹⁴, M.N.Kostomarov axborot resurslarini saqlash muammolari¹⁵, A.S.Kuzmicheva, V.S.Jiganovalar, G.M.Trostyanskiylar hammuallifligida yozilgan ilmiy izlanishda arxiv sohasida raqamli texnologiyalarni joriy etish masalalariga alohida to‘xtalib o‘tishgan¹⁶.

Axborot tashuvchilarning o‘ziga xos xususiyatlari, hujjatlarning ishonchligini ta‘minlash, ularning qimmatdorligini tekshirish, arxivlardagi hujjatlarni turli tashuvchilarda uzoq va ishonchli saqlash, jumladan, elektron saqlash tizimini yaratish va takomillashtirish masalalari asosiy masalalardan iborat bo‘ldi.

Umuman olganda, O‘zbekistonda axborot tashuvchi vositalar tarixi va hujjatlar saqlovini ta‘minlash tamoyillariga ayrim tadqiqotlarda qisman e‘tibor qaratilgan. Ammo axborot tashuvchi vositalarning tarixi, arxiv sohasida qo‘llanilishi, takomillashib borishining evolyutsion bosqichlari kabi masalalar alohida umumlashgan tadqiqot sifatida o‘rganilmagan.

Dissertatsiya tadqiqoti va dissertatsiya tugallangan oliy o‘quv yurtining ilmiy rejalari o‘rtasidagi bog‘liqlik. Dissertatsiya Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universitetining “Arxivshunoslik va manbashunoslik” kafedrasida ilmiy tadqiqot rejasiga muvofiq AL-442105887-sonli “Raqamli arxiv: O‘zbekiston Milliy arxiv fondlarining onlayn yo‘lko‘rsatgichini yaratish” amaliy loyiha doirasida amalga oshirilgan.

Tadqiqotning maqsadi O‘zbekistonda axborot tashuvchi vositalar tarixi va hujjatlar saqlovini ta‘minlash masalalarini yoritib berish.

Tadqiqotning vazifalari:

- axborot tashuvchi vositalar tarixiga oid ma’lumotlari, jumladan, elektron axborot tashuvchilar tarixini davriy adabiyotlar asosida tahlil etish;
- O‘zbekistonda hujjatlarning saqlovini ta‘minlash hamda hujjatlarni raqamlashtirish va arxivlashtirishning qonuniy asoslarini yoritib berish;
- arxiv hujjatlarining ishonchligini ta‘minlash masalalarini ochib berish;

¹² Wilson M. “Using the concept of a measurement system to characterize measurement models used in psychometrics”. – Measurement, 2013. – № 46 (9). – P. 3766-3774; Jared Robert Keller. Blockchain’s potential role in the future of archiving. ODI (The Open data Institute), 2018 // <https://theodi.org/person/jared-keller/>.

¹³ Стрюкова Е. Автоматизация архивного дела в России. Пути и проблемы. Раздел (Сексја) III // Архивы в информационном обществе, 2013 [Электронный ресурс] <https://elar.urfu.ru/bitstream/10995/19630/1/arp-2013-16.pdf>.

¹⁴ Викториа Лемьё. Переход на государственное делопроизводство с использованием блокчейна: Зачем, когда, что и как. Доклад Викториа Лемьё, доцента факультета архивно-библиотечных наук и информатики, руководителя кластера «Блокчейн в университете Британской Колумбии», университет Британской Колумбии (Канада) // на Международной научно-практической конференции «От пергамента к цифре». – Казань, 2018 [Электронный ресурс] <https://www.youtube.com/watch?v=rWhwZGOTXKs>.

¹⁵ Костомаров М.Н. Управление информационными ресурсами за рубежом. – М.: РГГУ., 1997. – С. 86; Тихонов В.И. Обеспечение сохранности электронных документов // Вестник архивиста. – Москва, 2005. – № 5-6. – С. 404-406.

¹⁶ Кузьмичева А.С., Жиганова В.С., Тростянский Г.М. Создание электронных архивов с применением технологии оцифровки [Электронный ресурс] <http://www.tsutmb.ru/nauka/internet-konferencii/2017/inform-i-documen-obespechenie-6/2/kuzmicheva.pdf>.

– erostatik tahlil asosida hujjatlarning qimmatlilik ekspertizasini tashkil etish jarayonlarini modernizatsiya qilish nazariyasi va amaliyotiga oid tahliliy xulosalar ishlab chiqish;

– markazlashtirilgan elektron arxivlarni tashkil qilishning konseptual yechimlarini ochib berishdan iborat.

Tadqiqot obyektini O‘zbekistonda axborot tashuvchi vositalar tarixi va hujjatlar saqlovini ta’minlash tamoyillariga oid ma’lumotlarni tashkil etadi.

Tadqiqotning predmetini axborot tashuvchi vositalar tarixiga oid ma’lumotlari, hujjatlarning saqlovini ta’minlash hamda hujjatlarni raqamlashtirish va arxivlashtirishning qonuniy asoslari, arxiv hujjatlarining ishonchliligini ta’minlash masalalari, erostatik tahlil asosida hujjatlarning qimmatlilik ekspertizasini tashkil etish jarayonlarini modernizatsiya qilish, markazlashtirilgan elektron arxivlarni tashkil qilishning konseptual yechimlari tashkil qiladi.

Tadqiqot usullari. Dissertatsiyada tarixiy tadqiqotlar olib borishning tizimli, qiyosiy, ichki va tashqi, tarkibiy, mazmuniy va erostatik tahlil usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

O‘zbek davlatchiligi taraqqiyotida muhim ahamiyat kasb etgan yozuv madaniyatining paydo bo‘lishi va takomillashishi bevosita axborot tashuvchi vositalarning moddiy asoslar evolutsiyasi bilan uzviy bog‘liq tarzda kechgani, bu tarixiy jarayon o‘z ichiga qoya tosh, sopol idish, loy taxtachalar, hayvon terisi, o‘simlik barglaridan foydalanishdan tortib qog‘oz, perfokarta, magnit tasma va raqamli texnologiyalarni kashf etilishi bosqichlarini qamrab olganligi nazariy o‘rganilgan holda tahlil qilinib, dalillangan;

axborot tashuvchi vositalarning turidan qat’i nazar hujjatlashtirilgan axborot matn va mazmun jihatdan o‘zgarmasligi tamoyiliga asoslangan postulat¹⁷lar ishlab chiqilib, tegishli me’yoriy talablar asosida zamonaviy hujjatlashtirish amaliyotida saqlov bilan bog‘liq moddiy resurslarni tejash, ulardan samarali foydalanish imkonini beradigan, faqat qog‘oz, faqat elektron hamda har ikki shaklda yaratiladigan hujjatlarning tasniflagichi ishlab chiqilish zarurati dalillangan;

hujjatshunoslik va arxivshunoslikda qo‘llaniluvchi “hujjat” atamasiga yangi ta’rif berilib, unda erostatik tahlil qilish orqali hujjatlarni qimmatlilikini aniqlash, saralash va davlat saqloviga topshirish, asossiz yo‘q qilib yuborilishini oldini olish mezonlarni takomillashtirish zarurati aniqlangan;

davlat hokimiyati va boshqaruv organlari faoliyatida shakllangan, davlat arxivlaridagi alohida qimmatli, shu jumladan, raqamlashtirilgan ilmiy hamda tarixiy ahamiyatdagi hujjatlarni istiqbolli saqlovini ta’minlash maqsadida yagona elektron repozitoriyni tashkil etish tamoyillari asoslangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

O‘zbekistonda axborotni saqlash masalalari, so‘nggi yillarda qabul qilingan me’yoriy-huquqiy hujjatlarning tashqi va ichki tahlili o‘tkazildi hamda mazmuni tushuntirildi;

¹⁷ Postulat bu -dalilsiz qabul qilingan va ilmiy nazariyani qurish uchun asos bo‘lib xizmat qiladigan bayonot. Qarang: «Толковый словарь русского языка» под редакцией Д. Н. Ушакова, -1935-1940.

muammolarni bartaraf etish yoki minimallashtirish maqsadida hujjatlarning qimmatligini aniqlash ekspertizasini yangi usul va yondashuvlarini joriy etish orqali modernizatsiya qilish bo'yicha takliflar ishlab chiqildi;

kelgusida davlat organlari tomonidan elektron hujjatlarning saqlovini tashkil etishda juda katta miqdorda budget mablag'larini tejash imkonini beradigan hamda Elektron hujjatlarni saqlashni to'g'ri va optimal tashkil etish, yagona Elektron repozitoriyni tashkil etish bo'yicha amaliy takliflar ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligining ilmiy asosi shundaki, dissertatsiyada bir qator rivojlangan davlatlarning elektron arxivlar, elektron hukumat, milliy arxivlarning raqamli merosini yaratish borasida hukumat darajasidagi dasturlari asosida amalga oshirilgan islohotlar hamda ushbu dasturlar doirasida qo'lga kiritgan yutuqlari tahlil etilgan. Ushbu tahlil etilgan ilmiy ma'lumotlar asosida bir qator maqsad va vazifalar belgilab olinib, nazariy konseptual g'oyalar ishlab chiqilib, hukumat doirasida ishlab chiqilgan. "Davlat arxivlarida raqamlashtirilgan hujjatlarning yagona saqlanishi va ulardan foydalanishni ta'minlash" hamda "Axborot texnologiyalari va axborot resurslarini rivojlantirish markazi" tomonidan ishlab chiqilgan "Idoraviy elektron arxiv" axborot tizimini ishlab chiqishda ishtirok etilgan. Tajribaviy tadqiqotlar yuqori aniqlik va ishonchlilikka ega zamonaviy tadqiqot usullari asosida bajarilib, dissertatsiya natijalarini amaliyotga tatbiq etilgani va vakolatli organlar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati shundan iboratki, O'zbekistonda axborot tashuvchi vositalar tarixi va hujjatlar saqlovini ta'minlash tamoyillarini o'rganilishi natijasida arxiv ishi tarixiga oid materiallar arxiv manbashunosligi, arxivshunoslik, hujjatshunoslik nuqtayi nazaridan yoritib berilgani bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundaki, axborot tashuvchilari tarixi, hujjatshunoslik, arxivshunoslikka oid aniqlangan qimmatli ma'lumotlar va natijalar arxiv ishi tarixi bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borishda, adliya hamda oliy ta'lim, fan va innovatsiya vazirliklari tizimidagi muassasalarining hujjatshunoslik bo'yicha kurslarini tashkil etish uchun, o'quv qo'llanmalar yaratish va metodologik yondashuvlarni takomillashtirishga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. O'zbekistonda axborot tashuvchi vositalar tarixi va hujjatlar saqlovini ta'minlash tamoyillari tadqiqoti davomida olingan ilmiy natijalar asosida:

Yangi O'zbekiston davrida kutubxonalarda, ya'ni ilm-fanga oid axborot ma'lumotlarni saqlash vositalari bosqichma-bosqich takomillashtirilib raqamlashtirish borasida ko'plab ishlar amalga oshirilgan. Ushbu jarayonlar kutubxona elektron resurlaridagi ma'lumotlarni saqlashning samarali usullari ishlab chiqilgan (O'zbekiston Respublikasi Administratsiyasi huzuridagi axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligining 2024-yil 14-avgustdagi 08-13-4810-dalolatnomasi va Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasining 2024-yil 25-iyundagi 01-02/809- dalolatnomasi). Tadqiqot natijasida aniqlangan bir

qator muhim ma'lumotlar kutubxonaning elektron resurslarini ishonchli saqlashga xizmat qilgan;

O'zbekiston arxivlaridagi hujjatlashtirilgan axborot matn va mazmun jihatdan o'zgarmasligi mezonlariga asoslangan postulatlar ishlab chiqilib, zamonaviy hujjatlashtirish amaliyotida saqlov bilan bog'liq moddiy resurslarni tejash, ulardan samarali foydalanish imkoniyati yaratilishiga sabab bo'lgan (O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi "O'zarxiv" agentligining 2024-yil 26-iyuldagi 01-25-04/1110-dalolatnomasi). Natijalar O'zbekiston Milliy arxivi sovet davrining 1924-1941-yillarga oid arxiv fondlari bo'yicha elektron yo'lko'rsatkichining ishlab chiqilishiga asos bo'lgan;

respublika davlat arxivlaridagi alohida qimmatli, shu jumladan, raqamlashtirilgan ilmiy hamda tarixiy ahamiyatdagi hujjatlarni istiqbolli saqlovini ta'minlash maqsadida yagona elektron repozitoriyni tashkil etish tamoyillari ishlab chiqilgan (O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi "O'zarxiv" agentligining 2024-yil 26-iyuldagi 01-25-04/1110-dalolatnomasi). Natijalardan "Davlat arxivlarida raqamlashtirilgan hujjatlarning yagona saqlanishi va ulardan foydalanishni ta'minlash" hamda "Idoraviy elektron arxiv" axborot tizimlarini ishlab chiqishda foydalanilgan;

hujjatshunoslik va arxivshunoslik sohasida axborot tashuvchi vositalar hamda ularning zamonaviy turlari, elektron hujjatlarni saqlash va ularning ishonchlilik darajasi borasida, televideniya orqali aholiga targ'ibot ishlari olib borilgan (2024-yil 11-martdagi 02-40-350-ma'lumotnomasi hamda 2025-yil 12-sentyabrdagi 01-33/668-son ma'lumotnomasi). Ushbu natijalar "O'zbekiston tarixi" telekanalining "Taqqimot" ko'rsatuvi" ssenariysini shakllantirishda foydalanilib, aholining O'zbekistondagi axborot tashuvchilar, elektron hujjatlar bo'yicha munosabatlarini yangicha qarashlar asosida shakllantirishga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 23 ta ilmiy-amaliy anjumanlarda, shu jumladan, 18 ta xalqaro hamda 5 ta respublikadagi ilmiy-amaliy konferensiya va seminarlarda aprobatsiyadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarini nashr etish. Ilmiy nashrlarda jami 28 ta, shu jumladan, 28 ta maqola, shu jumladan, 4 ta milliy va 13 ta xorijiy jurnallarda nashr etilgan bo'lib, ularda O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalarining asosiy natijalari nashrga tavsiya etilgan, shu jumladan, 7 ta respublika, 3 ta xalqaro konferensiya to'plamlarida maqolalari nashr etilgan. Bundan tashqari 7 kitob albomi (hammuallilikda) nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati, ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning tadqiqot qismi 140 betni tashkil qiladi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning kirish qismida tanlangan mavzuning dolzarbligi asoslanib, tadqiqot maqsadi, vazifalari hamda o'rganish obyekti va predmeti aniqlangan. Shuningdek, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari, olingan natijalarning ishonchliligi asoslangan hamda ularning nazariy va amaliy ahamiyati ochib berilgan.

Bundan tashqari tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy qilinishi, ishning aprotatsiyasi, e'lon qilingan ishlar hamda dissertatsiyaning tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar berilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi "**Axborot tashuvchi vositalarning rivojlanish tarixi**" deb nomlanib, unda axborotni saqlashning ilk vositalari sifatida miloddan avvalgi 40-10 ming yilliklarda qoyatoshlar, g'orlarning devorlaridan tortib to hozirgi kunlardagi elektron axborot tashuvchi vositalargacha bo'lgan davrdagi asosiy turlarining evolyutsion tarixi aks ettirib berilgan.

Uning "*Axborot tashuvchi vositalarning kelib chiqish tarixi*" deb nomlangan birinchi paragrafida axborot tashuvchi vositalarning kelib chiqishga ko'ra turlari, ularning evolyutsiyasi, axborotni saqlash nuqtai nazaridan ijobiy va salbiy tomonlari yoritib berilgan.

Ta'kidlash lozimki, jamiyat uchun axborotni saqlash doim muhim bo'lib kelgan, odamlar paydo bo'lgandan beri o'z hayotiy tajribalariga tegishli axborot ma'lumotlarni keyingi avlodga qoldirish choralarini ko'rgan. Har bir taraqqiyotlar davri axborotni saqlashning o'ziga xos usuliga ega bo'lib, ushbu maqsadlarda turli tabiiy vositalardan – axborot tashuvchisidan foydalanilgan.

Axborotni saqlashning ilk vositalari sifatida miloddan avvalgi 40-10 ming yilliklarda qoyatoshlar, g'orlarning devorlari hisoblangan. Qoyatosh rasmlari va petrogliflarida hayvonlar, ov va kundalik manzaralar tasvirlangan¹⁸. Ammo qadimgi axborot ma'lumotlarni saqlash borasida arxivshunoslar va arxeologlar o'rtasida qizg'in bahs-munozaralar mavjud. Ya'ni arxeolog olimlar qoyatosh tasvirlarini arxeologik manba sifatida e'tirof etishsa, arxivshunos mutaxassislar ularni axborot saqlashning ilk ko'rinishlari sifatida talqin qilishmoqda. Davlatchilik asoslari dastlab shakllangan sharq davlatlarid loy taxtachalar tarixdagi ilk kutubxonalarning asosini tashkil etgan, ulardan eng mashhuri Nineviya shahridagi Ashurbanipal kutubxonasi (VII asr) bo'lib, unda 30 mingga yaqin mixxat yozuvidagi loy taxtachalari topilgan¹⁹. Shuningdek, Qadimgi Shumer, Akkad, Yunoniston va Rim hududlaridan ham ushbu turdagi ko'plab loy taxtachalar namunalar arxeologik qazishmalar natijasida aniqlanib, tarixchi lingvistlar tomonidan o'rganilgan²⁰.

Insoniyat tarixida, axborot tashuvchilar ham takomillashib bordi. Hozirgi kunga qadar insoniyat tomonidan loy taxtachalar, papirus²¹, pergament²², qayin po'stlog'i (beresta), ipak matosi, qog'oz²³ va boshqa vositalardan axborot tashuvchi vositalar sifatida foydalanib kelingan.

Qog'oz fabrikalarining tashkil qilinishi jahonda axborot ma'lumotlarni saqlash vositalari tarixida tub burilish yasagan²⁴.

¹⁸ Кабиров Ж. Сармишсойнинг қоятош расмлари. – Тошкент: Фан, 1976. – Б. 11.

¹⁹ История книги: Учебник для вузов / Под ред. А.А.Говорова, Т.Г.Куприяновой. – М.: МГУП Мир книги, 1988. – С. 346.

²⁰ Борухович В.Г. В мире античных свитков. – Саратов: Саратовского университета, 1976. – С. 224.

²¹ Лукас А. Материалы и ремесленные производства древнего Египта / Пер. с англ. Б.Н.Савченко; Общ. ред. и вступ. статья проф. В.И.Авдиева. – М.: Иностран. лит., 1958. – С. 748.

²² Богатова Е.Б. Документные коммуникации: эволюционная модель носителей информации // Инновационная наука, 2015. – № 10-3. – С. 39-47 (murojaat sanasi: 5.04.2025).

²³ Малкин И.Т. История бумаги. – М.: АН СССР, 1940. – С. 85.

²⁴ Munavvar Rustam qizi "Yevropa yo'l Islom orqali o'tadi" // Hidoyat, 2020. 10-son. – B. 9.

VI-VIII asrlarda qog‘oz ishlab chiqarish Osiyodagi boshqa mamlakatlarga tarqalgan. VII asrning boshlaridan – XIX asrning birinchi yarmigacha Samarqandda ishlab chiqarilgan qog‘oz Turkistondagina emas, balki qo‘shni mamlakatlarda ham ommalashgan²⁵. XIX asr boshlaridan – XX asr oxiriga qadar qog‘ozlar kutubxona va arxivlarda asosiy axborot tashuvchi vosita sifatida foydalanib kelindi.

Ta’kidlash o‘rinliki, O‘rta Osiyoning Chor Rossiyasi mustamlakasi davrida qog‘oz tayyorlash faqatgina Qo‘qon xonligida davom ettirilgan. XIX asrning boshlarida Toshkentga kelgan sibirlik K.Maksimovning ma’lumotlariga ko‘ra, Toshkent va Qo‘qon shaharlaridagi qog‘oz fabrikalarida bir vaqtning o‘zida yigirmaga yaqin ustalar ishlagan²⁶.

Umuman, O‘rta Osiyodagi qadimgi davlatlar ish yuritish tizimi va kutubxonachilik tarixida loy g‘ishtlar, teri, yog‘och kabi ma’lumotni saqlash vositalaridan keng foydalanganligi qator arxeologik qazishmalar natijasida ilmiy jihatdan isbotlangan. Jumladan, Qadimgi Nisodagi Parfiya arxivi, Xorazmdagi Tuproqqal’a va Mug‘ qal’asi (Devashtich arxivi)²⁷ xarobalaridan topilgan axborot saqlash vositalari ushbu fikrga yaqqol misol bo‘la oladi.

Ta’kidlash lozimki, arxiv hujjatlarining aksariyati deyarli butun dunyoda hozirgi kun holatida asl qog‘ozda saqlangan bo‘lsada, qadimda axborot tashuvchi sifatida arxiv ma’lumotlari tosh, teri, pergament, qog‘oz, kalka hamda boshqa tashuvchilardan keng foydalanilgan. Axborot tashuvchilar tarixining tahlili shuni ko‘rsatadiki, insoniyat jamiyat taraqqiyotining har bir bosqichida o‘z ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda turli shakldagi axborot saqlash vositalarini yaratgan va takomillashtirib borgan.

Ushbu bobning *“Elektron axborot tashuvchi vositalar”* deb nomlangan bo‘limida XX asr o‘rtalarida kashf etilib, bugungi kunda barcha sohalarda keng qo‘llanilayotgan elektron hujjatlarga oid ma’lumotlar tahlil etilgan.

Elektron axborot tashuvchilar tarixi XIX asr boshlaridan boshlanib, xotira uskunalari ajdodi sifatida to‘quv dastgohi turadi. Ma’lumotlarni saqlash doirasidagi ilk kashfiyot muallifi fransiyalik olim Jozef Mari Jakkar hisoblanadi. Mato ishlab chiqarish o‘sha davrda o‘ziga xos murakkab jarayon bo‘lishiga qaramasdan, mantiqiy ko‘rinishdan bir xil bo‘lgan harakatlarning doimiy takrorlanishini namoyon etgan. Jakkar bu jarayonni avtomatlashtirish mumkin degan xulosaga keladi va Fransiyalik ixtirochi, o‘z ishida teshiklari bor maxsus qattiq plastinalar qo‘llaydigan tizimni o‘ylab topadi. Ushbu plastinalar dunyodagi birinchi perfokartalar bo‘lib, aynan shunga o‘xshash plastinalar Vokanson va Bushon dastgohlarida ham qo‘llanilgan, biroq bu uskunalar ishlab chiqarishda juda qimmat bo‘lgan va shu sababli muomalaga kirmagan²⁸.

XIX asrning 30-yillarida Jakkar tomonidan ishlab chiqilgan perfokartalarga ingliz matematigi Charlz Bebbidj e’tibor qaratadi, ammo uning mashinasini

²⁵ Yo‘ldoshev I. Yevropa papirusga yozayotganda. – T.: Ma’rifat, 2012. – B. 3.

²⁶ Yo‘ldoshev I., Xo‘jamurodov E. Samarqand qog‘ozi nega xaridorgir bo‘lgan? – T.: Xurriyat, 2023 // (<https://uzhurriyat.uz/2023/07/26/samarqand-qogozini-nega-xaridorgir-bulgan/>) (murojaat sanasi: 5.04.2025).

²⁷ Rashidov O. O‘zbekistonda arxiv ishi tarixi. – T.: Navro‘z, 2019. – B. 14.

²⁸ Альфия Рамилевна Фазлетдинова, Светлана Наилевна Растамханова, Руфина Раиловна Хафизова. Древние носители информации и их эволюция // Молодой ученый, 2017. Вып. 136. – Б. 550-552.

yaratilishi oxiriga yetmagan. Shunga qaramasdan uning konstruksiyasi keyinchalik zamonaviy kompyuterlarning tarixiy ko‘rinishi bo‘lgan²⁹.

Perfokartalar tayyorlanishi oddiyligi bilan ajralib tursa-da, bir qator sezilarli kamchiliklarga ham ega bo‘lgan. Standart perfokarta o‘zida 80 simbolni sig‘dira olgan, bu o‘z o‘rnida 100 bayt axborotga teng bo‘lib, bu juda kam hisoblanadi hamda bir megabayt ma‘lumotlarni saqlash uchun bunaqa perfokartalardan o‘n mingdan ziyodi talab etilib, bir soniyada ular 1,6 Kbayt ma‘lumotlarni o‘qiy olgan xolos va uchinchidan kafolatli ishonchning pastligi hamda qayta ustidan yozishning imkoniyati yo‘qligi katta kamchilik hisoblanadi³⁰.

1982-yil – Amerikaning katta EHMlar ishlab chiqarish va hisoblash texnikasi bilan shug‘ullanib kelgan IBM firmasi professional personal kompyuterlarini – IBM PC (PP EVM) ishlab chiqarishga o‘tdi. Bu kompyuterlar juda qisqa muddat ichida butun dunyoga yoyildi va 1985-1987-yillarga kelib, bu kompyuterlar yanada takomillashtirildi, shuningdek IBM PC/XT va IBM PC/AT belgilari bilan yalpi ishlab chiqarila boshladi³¹. 2000-yillarning boshlanishiga flesh-xotiralar ommaviylasha boshladi va ulardagi saqlov ishonchliligi qattiq disklarnikidan bir necha marta yuqori darajada deb baholangan. Masalan, qattiq diskning “yoqish/ochish” – “o‘chirish/yopish” sikllarining kafolatlangan soni kamida 5000 dan ortiq deb aytilgan bo‘lsa³², fleshkalarining bu kabi ko‘rsatkichi 10000 dan ortadi deb, ularning ishonchli saqlov nuqtayi nazardan ko‘rsatkichlari eng yuqori bo‘ladi degan natija kutilgan, ammo vaqt esa buning aksini ko‘rsatdi. Shu sababdan hozirda ko‘pgina server qurilmalarida lentali tipdagi saqlov massivlari nisbatan ishonchliligi yuqori sifatida keng qo‘llanilmoqda.

Ta’kidlash lozimki, qoidaga ko‘ra lenta axborot tashuvchilari juda katta miqdordagi axborotni saqlash zarur bo‘lgan sohalarda, masalan, qandaydir yirik tadqiqotlarda qo‘llaniladi. Lentali tashuvchilar CERNda bir yilda o‘rtacha 100 petabayt³³ magnit lentada saqlanayotgan ma‘lumotlardan faqat bir necha yuz megabayt yo‘qotiladi. Qattiq disklarda 50 petabayt ma‘lumotlar joylashgan bo‘lib, har yili tashkilot HDD³⁴ nosozliklari oqibatida bir necha yuz terabaytini yo‘qotadi.

Shuningdek, lenta axborot tashuvchisi 30 yildan keyin ham hech qanday xavfsiz xizmat qilib bersa-da, qattiq disk ish sikli atigi 5 yilni tashkil etadi³⁵ degan fikrni ilgari surgan.

Magnit axborot tashuvchilarning keyingi bosqichi 1971-yilda taqdim etilgan disketa bo‘lib, qurilma yaratilishi ustida IBM kompaniyasi ishlagan. 1967-yilda

²⁹ Блауг М. Бэббедж, Чарльз // 100 великих экономистов до Кейнса = Great Economists before Keynes: An introduction to the lives & works of one hundred great economists of the past. – СПб.: Экономикс, 2008. – С. 49-51.

³⁰ Колесников Е.А. Перфокарты. Техничко-исторические заметки. – СПб.: Реноме, 2016. – С. 184.

³¹ Phil Lemmons. The IBM Personal Computer: first impressions: [ингл.] // Byte[en]. Vol. 06. – № 10 (October), 1981. – P. 26-34.

³² Андреева М.М., Петрухина Е.А. Твердотельные носители информации // Система ценностей и интеллектуальный потенциал современной молодежи, 2013. – С. 102-105.

³³ Петабайт (ПБ, ПБайт) – 10^{15} (квадриллион) байтга тенг бўлган ахборот миқдорини ўлчаш бирлиги.

³⁴ HDD – qattiq disk (inglizcha qattiq (magnit) disk, HDD, HMDD) magnit yozish prinsipiga asoslangan tasodifiy kirish qurilmasi. Ko‘pgina kompyuterlarda asosiy xotira qurilmasi hisoblanadi.

³⁵ Евгений Saturn. История магнитного складирования // Upgrade, 2011. – № 4 (508). – С. 20-25. ISSN 1680-4694.

kompaniyada mijozlarga softni yangilash dasturlarini yuborish zarurati tug'ildi va Alan Shugart boshchiligidagi muhandislar guruhi unga kompakt hamda tezkor egiluvchan disk g'oyasini taklif etadi. Bir necha yil o'tib IBMda, bir marta yozish imkoniyati mavjud 80 Kbayt hajmdagi 8 duymli disket yaratildi³⁶.

1973-yil 8 duymli disketa hajmi 256 Kbaytgacha ko'paytirildi, yana ikki yil o'tganidan so'ng uning hajmi 1000 Kbaytni tashkil etgan. Disketalar 1976, 1984-yillarda qayta takomillashtirilib, 1,2 Mbayt hajmdagi axborotni saqlash imkoniyati yaratildi.

Bir vaqtda Disketalar bilan bir qatorda optik tashuvchilarning ham bozori rivojlanib Laserdisc (LD), Compact Disc (CD) Sony va Philips kompaniyalarining hamkorlikdagi harakatlari bilan ishlab chiqarildi. 2000-yildan boshlab 700 megabaytli disklar keng qo'llanila boshlangan, shuningdek, 800 Mbaytlilari ham uchrab turgan.

DVD³⁷ standarti ommaga 1996-yilda taqdim etilgan bo'lib, formatni ishlab chiqish 1991-yildan boshlangan. Philips va Sony kompaniyalari MMCD (Multimedia Compact Disc) texnologiyalari ustida ish olib borgan, Toshiba va Time Warner kabi 8 ta kompaniya Super Disc ishlab chiqish ustida ish olib borgan bo'lsalar, IBM sayi harakati bilan barcha ishlab chiqaruvchilar kuchlari birlashtirilgan va DVD standarti yaratilgan³⁸. Disk istalgan format va shakldagi ma'lumotlarni saqlashga qulay edi.

Shu bilan birga tashuvchidagi axborot ham vaqt o'tishi bilan yangicha shaklga, ya'ni elektron shaklga ega bo'ldi. Elektron hujjat atamasining o'zi 1990-yillar boshlarida paydo bo'lgan, lekin mamlakatimizning ichki hujjatshunosligida u faqatgina 2000-yillarning boshlarida faol foydalanila boshlangan. "Elektron hujjat aylanishi to'g'risida"gi qonun 2004-yilda chiqdi, ammo tashkilotlarning juda ozchilik qismi elektron hujjat aylanishi tizimiga to'liq o'tgan edi, bugunga kelib ularning soni anchaga ko'paydi. 2023-yilning yakuniga ko'ra 27 mingga yaqin vazirlik, idoralar va ularning tizimidagi tashkilotlar "Ijro.gov.uz" ijro intizomi idoralararo yagona elektron tizimiga ulangan. Tizimdan 100 mingdan ziyod foydalanuvchilar foydalanib kelmoqda. Mazkur tizimda 31 mln. dan ziyod hujjat imzolandi va hujjatlar soni kundan-kunga oshib bormoqda³⁹.

Ushbu bob bo'yicha xulosa qilib aytganda, insoniyat tarixida axborot tashuvchi vositalar doimiy ravishda takomillashib borgan bo'lsa-da, ularning asosiy xususiyatlari saqlanib qoldi. XX asr oxirida esa fan va texnika taraqqiyoti natijasida elektron axborot tashish vositalarining keng ommalashishiga olib keldi.

“O‘zbekistonda hujjatlarni but saqlashning me‘yoriy-huquqiy asoslari” deb nomlangan ikkinchi bobda O‘zbekistonda axborot saqlovini ta'minlash masalalari, O‘zbekiston milliy arxivlari misolida hujjatlarni saqlash muammolari hamda yechimlari ko'rib chiqilgan. Bundan tashqari, axborotlarni raqamlashtirish

³⁶ Фролов А., Фролов Г. Дисковая подсистема компьютера // Компьютер IBM PC/AT, MS-DOS и Windows. Вопросы и ответы. – М.: Диалог-МИФИ, 1993. – С. 218

³⁷ DVD (Digital Versatile Disc) – raqamli ko'p maqsadli disk; turli xil ma'lumotlarni raqamli shaklda saqlash uchun disk shaklida yaratilgan optik saqlash vositasi.

³⁸ Лапин Е.В. Подготовка и запись DVD всех типов. Краткое руководство. – М.: Вильямс, 2006. – С. 320

³⁹ O‘zbekiston milliy matbuot markazida o‘tkazilgan matbuot anjumanidan / 2024-yil, 25-dekabr // <https://t.me/uzarxivs/14906>

va arxivlashtirishning qonuniy asoslari, bu borada so‘nggi yillarda qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlar tahlil etilgan.

Ikkinchi bobning birinchi paragrafi *“O‘zbekistonda hujjatlarni but saqlovini ta‘minlash masalalari”* deb nomlanib, unda hujjatlarning jismoniy saqlanishi, arxivlarda hujjatlarni saqlovidagi harorat, namlik, yorug‘lik me‘yorlariga oid ma‘lumotlar hamda arxivlardagi sharoitlar xorijiy tajribalar asosida o‘rganilgan.

Arxiv amaliyotidagi natijalar asosida fikr bildirish mumkinki, arxiv saqlovxonalarida saqlashning asosiy parametrlarini o‘lchash yagona o‘lchovlar usuli yordamida amalga oshiriladi. Hujjatlarni saqlashda termometrlar va gigrometrlar yoki psixrometrlarni tanlash hamda o‘rnatish bo‘yicha umumiy belgilangan talablar, shuningdek, o‘lchash asboblari turi va ularni o‘rnatish standartlari bo‘yicha amaliy tavsiyalar mavjud emas. Natijada arxivlardagi o‘lchov asboblari ushbu qurilmalarga nisbatan belgilangan standartlarni hisobga olmagan holda o‘rnatilgan⁴⁰.

2017-2025-yillarda arxiv ishi va ish yuritishni takomillashtirishga qaratilgan 18 dan ortiq hujjatlar qabul qilindi, xususan, 1 ta Qonun, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2 ta farmoni va 2 ta qarori, 14 ta Vazirlar Mahkamasining qarorlari qabul qilindi⁴¹.

Barcha arxiv muassasalari, ya‘ni milliy arxivlar, davlat arxivlari va shaxsiy tarkib hujjatlari davlat arxivlarining yagona davlat organi tomonidan boshqaruvi ostida birlashtirilishi arxiv foydalanuvchilari hamda tadqiqotchilarga arxiv hujjatlaridan foydalanishda qulayliklar yaratildi. Natijada arxiv sohasida davlat

⁴⁰ Абдуллаев А.Х. Методы, модели и алгоритмы информационно-документационного и метрологического обеспечения архивной деятельности государственных организаций. Автореф. дис. ... д-ра тех. наук. – Ташкент, 2022.

⁴¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 20.09.2019-yildagi PF-5834-son “O‘zbekiston Respublikasida arxiv ishi va ish yuritishni takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 20.09.2019-yildagi PQ-4463-son “O‘zbekiston Respublikasi “O‘zarxiv” agentligi faoliyatini takomillashtirish to‘g‘risida”gi qarori; O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 10.11.2022-yildagi PQ-419-son “Hisobot taqdim etish va arxiv hujjatlarini saqlash tartib-taomillarini maqbullashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori; O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 08.02.2020-yildagi 72-son “O‘zbekiston Respublikasi “O‘zarxiv” agentligi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi Qarori; O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 19.03.2020-yildagi 174-son “Arxiv ishi va ish yuritish sohasidagi ayrim normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to‘g‘risida”gi qarori, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 19.08.2020-yildagi 495-son “Arxiv ishi va ish yuritish sohasida davlat xizmatlarini ko‘rsatishning ayrim ma‘muriy reglamentlarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Qarori, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 10.11.2020-yildagi 703-son “O‘zbekiston Respublikasi “O‘zarxiv” agentligi hay‘ati a‘zolari tarkibini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Qarori; O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 10.11.2020-yildagi 706-son “Arxiv ishi va ish yuritish sohasiga oid normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to‘g‘risida”gi Qarori; O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 24.08.2021-yildagi 538-son “Davlat organlari va tashkilotlarining arxiv ishi va ish yuritish sohasidagi ekspert komissiyalari to‘g‘risidagi namunaviy nizomlarni tasdiqlash haqida”gi Qarori; O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 23.09.2021-yildagi 597-son “Arxiv ishi va ish yuritish sohasida davlat xizmatlari ko‘rsatishning ayrim ma‘muriy reglamentlarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Qarori; O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 29.12.2021-yildagi 788-son “Davlat arxivlari o‘quv zallarida arxiv hujjatlaridan foydalanishga ruxsatnoma berish bo‘yicha davlat xizmati ko‘rsatishning ma‘muriy reglamentini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Qarori; O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 22.02.2022-yildagi 86-son “Maxsus elektron tizim orqali ruxsat etish xususiyatiga ega ayrim hujjatlarni berish tartib-taomillari to‘g‘risidagi yagona nizomni tasdiqlash haqida”gi Qarori; O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 20.11.2023-yildagi 612-son “Davlat xizmatlarini ko‘rsatishni tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlarni tizimlashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori; O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 08.04.2025-yildagi 208-son “Talabgorlarni arxiv hujjatlarini tartibga keltirishga kompetentligi yuzasidan attestatsiyadan o‘tkazish bo‘yicha davlat xizmatini ko‘rsatishning ma‘muriy reglamentini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Qarori; O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 10.06.2025-yildagi 360-son “O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi “O‘zarxiv” agentligining hay‘ati a‘zolari tarkibini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Qarori.

xizmatlari elektronlashtirilib, aholiga davlat xizmatlarini ko'rsatish hajmi oshdi va ularni vaqtini qisqartirishga erishildi.

Bugungi kunda davlat arxiv fondi hujjatlar saqlovini ta'minlashda arxivlarning to'liq saqlovxonalar hamda maxsus jihozlar bilan ta'minlanmaganligi asosiy muammolardan biri hisoblanadi. 1996-yil 1-yanvar holatiga ko'ra, respublikada davlat arxivlari uchun atigi 9 ta bino mavjud edi. 68 ta davlat arxivining binolari hujjatlarni saqlashga moslashtirilgan bo'lib, ularning aksariyati hujjatlar bilan to'lib-toshgan va idoraviy arxivlardan hujjatlarni davlat saqloviga qabul qilish muammolari yuzaga kelgan. Arxivlarda rejalashtirilgan jamlash ishlarini tashkil etish respublika bo'yicha 1,5 milliondan ortiq saqlov birligiga mo'ljallangan saqlovxonalar qurish va foydalanishga topshirish zarur edi⁴².

Bugungi kunga kelib davlat arxivlari uchun yangi binolar qurish va ularni rekonstruksiya qilish hamda texnik modernizatsiyalashtirish bo'yicha katta ishlar amalga oshirilmoqda. Birgina 2009-2014-yillarda davlat arxivlari uchun 20 tadan ortiq maxsus yangi binolar qurildi, 5 ta yirik arxivlarning binolari to'liq rekonstruksiya qilindi. So'nggi yillarda arxivlarni binolar bilan ta'minlash masalasi hukumat darajasiga ko'tarildi. Jumladan, 2019-yili Surxondaryo viloyatida yetti qavatli davlat arxivi⁴³, Samarqand viloyati Pasdarg'om tumani⁴⁴, 2020-yilda Andijon viloyatida 2 ta arxiv binosi, 2021-yilda Buxoro viloyati Kogon, Navoiy viloyati Navoiy shahri⁴⁵ va Konimex tumani, Sirdaryo viloyati Yangiyer shahri⁴⁶, Jizzax viloyati G'allaorol⁴⁷ hamda Farg'ona viloyati So'x tumanlarida⁴⁸ yangi bino qurilib foydalanishga topshirildi. Shuningdek, Narpay tumani davlat arxivi kapital ta'mirlanib, foydalanishga topshirildi. 2022-yilda Navoiy viloyati Zarafshon shahrida yangi arxiv binosi⁴⁹ va Farg'ona viloyat Rishton tuman davlat arxivining rekonstruksiya qilingan binolari ishga tushdi. 2023-yilda Surxondaryo viloyati Denov tumanida⁵⁰ va Farg'ona viloyati Quva tuman davlat arxivi binolari foydalanishga topshirildi. 2024-yilda Buxoro viloyati Shofirkon tumanida yangi arxiv binosi ishga tushdi. 2025-yilda Namangan viloyat davlat arxivi uchun yangi

⁴² Alimov I.A. Arxivshunoslik o'quv qo'llanma. – Andijon, 2005. – B. 33.

⁴³ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 10-11-fevral kunlari Surxondaryo viloyatiga tashrifi davomida berilgan topshiriqlarning ijrosi bo'yicha Vazirlar Mahkamasining 2017-yil fevraldagi 18-son yig'ilish bayonining 10-bandi.

⁴⁴ Samarqand viloyati Pasdarg'om tumani hokimining 019 yil 8 apreldagi "Juma shahar A.Temur mahallasi Nodirabegim ko'chasida joylashgan tuman hokimligi zaxirasidagi qishloq xo'jaligida foydalanilmaydigan yer maydonidan tuman davlat arxiviga ma'muriy bino qurish uchun 0,02 gektar yer maydonini tashlan va ajratish to'g'risida"gi 2 1162-q son qarori.

⁴⁵ Navoiy shahar hokimining 2013-yil 31-iyuldagi Q-480/07-son qarori.

⁴⁶ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 28-dekabrda "2021-2023-yillarda O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy va ishlabchiqarish infratuzulmasini rivojlantirish chora tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4936-son Qarori.

⁴⁷ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 28-dekabrda "2021-2023-yillarda O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzulmasini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4936-son Qarori.

⁴⁸ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 8-avgust kungi "2020-2021-yillarda Farg'ona viloyatining So'x tumanini kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4798-sonli qarori.

⁴⁹ Zarafshon shahar hokimining 2020-yildagi Q-158-son qarori.

⁵⁰ Surxondaryo viloyati hokimining 2022-yil 25-avgustdagi 491-8-0-Q/22 Denov tumani "Nurli manzil" mahallasi hududidan Denov tumani Davlat Arxiviga "Ma'muriy" bino qurilishi uchun yer maydoni ajratish to'g'risida"gi qarori.

bino qurildi⁵¹ va Buxoro viloyati Jondor tuman davlat arxivi yangi binosi foydalanishga topshirildi. Ushbu amaliy ishlar Milliy arxiv fondi hujjatlarini saqlanishiga e'tibor qilinayotganligidan dalolat beradi.

So'nggi yillarda elektron hujjat aylanish tizimlarining takomillashuvi natijasida davlat arxivlarida, ushbu turdagi hujjatlarning doimiy saqlovi va ishonchligini ta'minlashda yangi muammolar yuzaga kelmoqda. Birinchidan, elektron hujjatning saqlovini ta'minlash lozim bo'lib, agar bir necha yuz yillik qog'oz hujjatlarni saqlashda tajriba orttirilgan bo'lsa, zamonaviy axborot tashuvchilarning kashf etilganiga unchalik ko'p vaqt bo'lmadi va shu qisqa davr ichida bir necha texnologiyalar almashdi. Boshqa tomondan qaraganda, qog'oz asosdagi hujjatlarni saqlashning o'ziga ham bir qator muammolarni, xususan, sifatsiz qog'oz, sovet va mustaqillik davri hujjatlarida lazer hamda shu kabi dastlabki printerlardan chiqarilgan matnning so'nishi, o'chishi, rangning to'kilishi va hokazo muammolarni yuzaga keltirmoqda.

Amaliyotda qog'oz hujjatlarni saqlovini ta'minlash va restavratsiyasi elektron hujjatlarni saqlashdan ko'ra birmuncha qimmatroq hamda murakkabroq. Elektron hujjatlar saqlanishida albatta zaxira nusxalash va muntazam (10-15-20 yilda kamida bir marta) yangi tashuvchi ma'lumotlarni ko'chirish talab etilib, ushbu vazifaning yechimini murakkab bo'lmagan reglamentlarga amal qilish natijasida minimal sarf-xarajat bilan yechim topish mumkin.

Shuningdek, arxiv ishini avtomatlashtirish jarayoni bevosita fan-texnikani rivojlantirish bilan bog'liq bo'lib, bunda bevosita jamiyatni arxivlarda saqlanayotgan axborotni qulay shaklda tez va sifatli qidirib olish hamda undan nusxa ko'chirishga bo'lgan talablarini qondirish imkonini beradi⁵².

Umuman olganda, O'zbekistonda arxiv ishini takomillashtirish ishlariga alohida e'tibor qaratilmoqda. Xususan, zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish, xalqaro hamkorlik, saqlash va raqamlashtirish jarayonlari orqali O'zbekiston arxiv tizimi dunyo standartlariga yaqinlashmoqda. Ammo ushbu jarayonlarda muammolar ham mavjud bo'lib, ular texnik, tashkiliy va qonunchilikka oid o'zgarishlarni talab etadi. Arxiv ishini rivojlantirishda, shuningdek, kadrlar malakasi va ilg'or texnologiyalardan foydalanishni kengaytirish, arxiv hujjatlarini saqlash va raqamlashtirishga oid yangi innovatsion texnologiyalarni joriy etish muhim hisoblanadi.

Ushbu bobning ikkinchi paragrafi "*Axborotlarni raqamlashtirish va arxivlashtirishning qonuniy asoslari*" deb nomlanib, unda arxivlarda zamonaviy axborot kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish, arxiv hujjatlarini saqlash va raqamlashtirish sohasidagi meyoriy hujjatlar hamda arxiv xizmatlarini ko'rsatish sohasida ham zamonaviy yondoshuvlar tahlil etilgan.

Hozirda jamiyatning barcha sohalarida zamonaviy kompyuter texnikalarini joriy qilish orqali axborot texnologiyalaridan foydalanish, fuqarolarning axborotga ortib borayotgan talab-ehtiyojlarini to'laroq qamrab olish, jahon axborot jamiyatiga

⁵¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 20-sentyabrdagi PQ-4463-son Qarori; Namangan viloyat xokimining 2023 yil 24-noyabrdagi 446-6-0-Q/23-son qarori.

⁵² Isakova M. Arxivshunoslik Darslik, Arxiv ishiga zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy etish. – Toshkent: Turon-Iqbol, 2018. – B. 149-168.

kirish hamda jahon axborot resurslaridan foydalanishni kengaytirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratilmoqda⁵³.

Ta'kidlash lozimki, XX asr oxirida boshqaruv apparatida foydalanilgan axborot texnologiyalari, odatda, boshqaruv va ish yuritish tizimining tezkor axborot almashinuv jarayoniga o'zining ta'sirini o'tkaza olmadi. Chunki axborotlashtirishning ilk bosqichlarida tarkibiy bo'linmalarda axborotni qayta ishlashni avtomatlashtirish uchun yaratilgan dasturlar, tashkilot boshqaruv tizimining boshqa elementlari va bo'g'inlari bilan axborot almashinuviga mo'ljallanmagan edi.

Xususan, ish yuritishni avtomatlashtirishga mo'ljallangan tizimlar aniq bir operatsiyalarni bajarishda mehnat sarfini kamaytirishga mo'ljallangan.

Shu o'rinda, elektron hujjatlarni doimiy saqlash bosqichlarida, zamonaviy standartlashtirilgan atamalar va tushunchalaridan foydalanish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Ushbu bo'limda arxiv hujjatlarining elektron va raqamli nusxalarini yaratish masalalariga ham alohida e'tibor qaratilgan. Elektron nusxa bu an'anaviy, ya'ni qog'oz, video, audio kasseta, kinolenta va boshqa hujjatlarni raqamlashtirish orqali ularning yaratilgan elektron shakli, asl nusxada mavjud bo'lgan axborotni o'qish yoki ko'rish (eshitish) imkonini beruvchi elektron ko'chirma nusxasi⁵⁴.

Bugungi kunda axborot sohasida jadal o'zgarishlar yuz bermoqda-ki, ular boshqaruv faoliyatiga, xususan, boshqaruv kommunikatsiya va hujjat aylanishiga o'z ta'sirini ko'rsatmoqda. Bu yanada mukammal axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo'llash bilan bog'liq global xususiyatga ega va zamonaviy axborot inqilobini ko'rinishi sifatida talqin etilmoqda.

Axborot tizimini yaratish va joriy etishdan maqsad zamonaviy AKTdan foydalangan holda ish jarayonlarini tizimli monitoring qilishning markazlashtirilgan boshqaruv tizimini optimallashtirish hamda avtomatlashtirish, arxivlar faoliyatining asosiy yo'nalishlarini va arxiv hujjatlarini xavfsiz saqlash shartlarini belgilashdan iborat.

Bundan tashqari, olib borilayotgan izlanishlar arxiv ishi va ish yuritish sohasiga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, arxiv hujjatlarini yig'ish, hisobga olish, saqlash va ulardan foydalanishning eng yangi mexanizmlarini joriy etishda, moddiy-texnik bazasini takomillashtirishda me'yoriy hujjatlarning zarurligini ko'rsatmoqda.

Xulosa qilib aytganda axborot inqiloblari tarixida⁵⁵ yozuvni kashf etilishi (ya'ni hujjatlashtirish imkoniyatining yaratilishi), yozma axborotni ko'paytirish imkoniyatini oshishi, axborot uzatishning yangi vositalarini keng tarqalishi, zamonaviy axborot inqilobining xususiyati Internetning va global

⁵³ Nazarov A.Y. Raqamli manbalar va elektron arxiv asoslari. O'quv qo'llanma. – Toshkent: Bookmany print, 2023. – B. 26.

⁵⁴ O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "O'zbekiston Respublikasida arxiv ishi va ish yuritish sohasi takomillashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasi hukumatining ayrim qarorlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish, shuningdek, ba'zilarini o'z kuchini yo'qotgan deb hisoblash to'g'risida" Qarori 15.02.2021 yil, 68-son.

⁵⁵ Кулямин В.В. . Информационная революция // Большая российская энциклопедия / гл. ред. Ю.С.Осипов. – М.: Большая российская энциклопедия, 2004-2017.

telekommunikatsiya tarmoqlari axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasida xizmatlar bozorining rivojlanishiga olib keldi⁵⁶.

Dissertatsiyaning uchinchi bobi **“Hujjatlashtirilgan axborotlarning arxiv saqlovini tashkil qilish talablari”** deb nomlanib, mazkur bobda hujjatlashtirilgan axborotning ishonchliligini ta’minlash masalalari, qimmatlilik ekspertizasini erostatik tahlillar asosida modernizatsiya qilish hamda markazlashgan elektron arxivlarni tashkil etishning konseptual yechimlari kabi masalalar yoritilib berilgan. Shunigdek, arxiv sohasini axborotlashtirish, axborot-qidiruv tizimlari va ma’lumotlar bazalarining yaratilishi, blokcheyn texnologiyasini arxiv sohasida qo’llanilishi kabi masalalari ham tizimli ravishda tahlil qilingan.

Ta’kidlash lozimki, har qanday hujjatlashtirilgan axborot konfidentsialligi (axborotlarning tashqariga chiqib ketishini oldini olish) hamda axborot xavfsizligiga rioya qilinishi lozim bo’lib, bu tashkilot ichida va uchinchi tomon vakillari tomonidan ruxsatsiz foydalanishdan himoyalashni o’z ichiga oladi.

Axborotni identifikatsiya etuvchi rekvizitlar hujjatda aks ettirilgan axborot matnining mazmuni nima haqidaligini bildira oladi, ya’ni uni identifikatsiya ettiradi. Lekin hujjatlashtirishda qo’llangan rekvizitlar borligini o’zi kamlik qiladi, bu rekvizitlar o’zi uchun belgilangan joyda, to’g’ri ko’rsatilgan bo’lishi lozim⁵⁷. Bu talab zamonaviy elektron hujjatlarni qo’llaganda, ayniqsa, elektron hujjatlar manzilli qidiruv tizimida, jamlangan ma’lumotlarni tizimlashtirishda o’ta muhim ahamiyat kasb etadi. Shu holatlarni inobatga olgan holda “hujjat” atamasini quyidagicha berish taklif etiladi: “hujjat – jismoniy asosidan qat’iy nazar, identifikatsiya qiluvchi va belgilangan tartibda ko’rsatilgan rekvizitlar bilan aks ettirilgan axborotdir”. Mazkur ta’rif an’anaviy, qog’oz asosdagi hujjatlar uchun ham, elektron hujjatlar uchun ham xosdir.

Tadqiqotda axborot ma’lumotlarning ishonchlilik darajasiga oid ma’lumotlar ham tahlil etilgan. I.N.Kuznetsovning ta’kidlashicha, har qanday axborotning ishonchlilik darajasi uni qayerdan olinganiga bog’liq ravishda tavsiflanadi⁵⁸ deb, axborot manbasini mutlaqo ishonchli va malakali, ishonchli, yetarli darajada ishonchli emas, ishonchsiz hamda noaniq kabi darajalarga taqsimlagan. Mazkur muammoni hal qilishga bag’ishlangan ko’plab ilmiy tadqiqotlar olib borilganligiga qaramay, raqamli texnologiyalarni shiddat bilan rivojlanishi va elektron axborotlarni ortib borishi bilan u yanada dolzarb masalaga aylanib, zamonaviy qiyofada namoyon bo’lmoqda. Shundan kelib chiqib, arxiv ma’lumotlarining ishonchliligini ta’minlash uchun blokcheyn texnologiyasi va boshqa taqsimlangan reyestrardan foydalanish asosiy vositalar bo’lib xizmat qiladi⁵⁹.

⁵⁶ Бобылева М.П. “Управленческий документооборот: от бумажного к электронному. Вопросы теории и практики”. – М.: ТЕРМИКА, 2016. – С. 203.

⁵⁷ Lim C. Checking how fact-checkers check // Research & Politics, 2018. – № 5 (3). – P. 2 // <https://journals.sagepub.com/doi/epub/10.1177/2053168018786848> (murojaat sanasi: 2.05.2025).

⁵⁸ Кузнецов И.Н. Информация: сбор, защита, анализ // Учебник по информационно-аналитической работе. – М.: Яуза, 2001. – С. 117.

⁵⁹ Abdullayev A., Saidov A. and Aliyev A. Problematic Issues of Providing Validity and Optimization of the Exchange of Archival Information Based on Blockchain Technology // 2021 17th International Asian School-Seminar “Optimization Problems of Complex Systems (OPCS)”. – Novosibirsk, Russian Federation, 2021. – P. 125.

Arxivlashda blokcheyn texnologiyalaridan foydalanish arxivlarga kelib tushgan so‘rovlarni bajarishda ishtirok etuvchi bir qator davlat va nodavlat tashkilot tuzilmalarining yagona zanjiriga ulanishini ta‘minlaydi (masalan, davlat xizmatlarini ko‘rsatish markazlari, arxivlar, notarial idoralar, manfaatdor vazirlik va idoralar hamda boshqa muassasalar)⁶⁰.

Mazkur tadqiqot natijalari an‘anaviy (qog‘ozli) asosda va elektron shaklda yaratilishi mumkin bo‘lgan hujjatlarning tasniflagichi ishlab chiqilishiga asos bo‘lib xizmat qildi⁶¹. Tasniflagich hujjatlarning saqlash muddatlarini belgilash va ularni davlat arxivlarida saqlash uchun saralab olish yoki yo‘q qilish uchun ajratishda tavsiyaviy ko‘rinishga ega bo‘lgan me‘yoriy qo‘llanma uchun tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Axborotlashgan hujjatlarni ishonchliligini ortishiga yana bir omillardan biri hujjatlarning qimmatligini aniqlash ekspertizasini amalga oshirilishi bo‘lib, arxivshunoslik va hujjatshunoslik sohasida eng muhim ilmiy-amaliy jarayonlardan biri hisoblanadi. U hujjatlarning ijtimoiy, siyosiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy va ilmiy ahamiyatini baholash, ularning saqlanish muddatini belgilash hamda doimiy yoki vaqtinchalik saqlashga ajratish maqsadida amalga oshiriladi. Mazkur jarayon hujjatlarning nafaqat davlat boshqaruvi, balki jamiyat xotirasi va tarixiy merosni asrashdagi rolini ta‘minlaydi.

XX asr boshlarigacha arxiv hujjatlarning ilmiy qiymatini ekspertiza qilish va baholash nazariyasi, uning amaliy tartiboti yo‘q bo‘lib, hattoki “hujjatlarning qimmatligini aniqlash” atamasi ishlatilmagan. Bunday tizimni juda to‘liq shaklda ishlab chiqish XX asr 30-yillarining ikkinchi yarmida amalga oshirildi, bu esa, o‘z navbatida, arxiv ekspertisasi nazariyasi shakllana boshlaganini ko‘rsatadi. Ekspertiza nazariyasining keyingi rivojlanishi manbashunoslik va axborot nazariyasi yondashuvi yutuqlaridan foydalanish bilan bog‘liq bo‘lib, XX asrning 20-30-yillaridan boshlab dunyoning ko‘pgina arxivlarida hujjatlarning qiymatini aniqlash uchun ekspert hamda ekspert tekshirish komissiyalari (EK va ETK) faoliyati yo‘lga qo‘yilgan⁶².

Ta‘kidlash lozimki, tashkilot, korxonalar va muassasalar faoliyati natijasida turli ilmiy hamda amaliy ahamiyatga ega bo‘lgan hujjatlar yaratildi. Ularning katta qismi bir martalik tusdagi axborotlarni o‘z ichiga olib, axborotdan tezkor foydalanilgandan so‘ng, bunday hujjatlar o‘z ahamiyatini yo‘qotadi. Boshqa hujjatlar esa bir necha yillar davomida o‘z ahamiyatini saqlab qoladi. Ammo ilmiy va amaliy maqsadlar uchun qimmatli axborotlarni o‘z ichiga olgan hujjatlar mavjud bo‘lib, bunday hujjatlar doimiy saqlanadi⁶³.

⁶⁰ Abdullayev A., Saidov A. and Aliyev A. Problematic Issues of Providing Validity and Optimization of the Exchange of Archival Information Based on Blockchain Technology // 2021 17th International Asian School-Seminar “Optimization Problems of Complex Systems (OPCS)”. – Novosibirsk, Russian Federation, 2021. – P. 126.

⁶¹ Mazkur tasniflagich strukturasi arxivlar qamroviga olingan hujjatlarni an‘anaviy tarzda qo‘llanilgan Namunaviy ro‘yxat jadvaliga qo‘shimcha ravishda yangi tartibda tavsiya etilayotgan 5 ta qo‘shimcha ma‘lumotlar ustunlari asosida yaratilgan.

⁶² Глушкова Л.В. Документоведение: учеб. пособие с образцами документов / Л.В.Глушкова. – Томск: Томская духовная семинария, 2002. – С. 109.

⁶³ O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 30.10.1999-yildagi 482-son “O‘zbekiston Respublikasi Milliy arxiv fondi to‘g‘risida NIZOM (Qarang: <https://lex.uz/docs/329133> (murojaat sanasi:8.02.2025)).

Amalda hujjatning qimmatligini baholash amaliyoti hujjatning hayotiy siklining 2-bosqich (idoraviy saqlov) hamda 3-bosqich (arxiv saqlovi) segmentlarida amalga oshiriladi. Idoraviy saqlash vaqtida rasmiy qayd etilishi to'xtatilgan hujjatlarning amaliy va ilmiy-tarixiy ahamiyatini aniqlash, shuningdek, bunday ahamiyatga ega bo'lmagan hujjatlarni belgilangan tartibda yo'q qilish uchun alohida ajratish maqsadida hujjatlarning qiymati ekspertizadan o'tkaziladi⁶⁴.

Arxivlarda hozirda qo'llanib kelinayotgan hujjatlarning qimmatligini baholash amaliyotini ularning saqlanish bosqichlari kesimida tahlil etish natijalariga ko'ra, hujjatlarning qimmatligini baholash amaliyotida ekspert komissiya a'zolari yakka qaror qabul qilish tendensiyasi o'rnashib qolgan. Shuningdek, hujjatlarda mavjud bo'lgan ilmiy-tarixiy ahamiyatdorlik aynan ekspertiza o'tkazilayotgan vaqt (davr)da idoraviy arxivlarda hujjatlar saqlovi uchun bo'sh yer maydonlari va stellajlar yetishmovchiligi kabi muammoli masalalar nuqtayi nazaridan qaror qabul qilinadi.

Tadqiqotda xorijiy davlatlarning arxiv hujjatlarini qimmatlilik darajasini ekspertiza qilish mezonlari, jarayonlari va bosqichlari kabi masalalariga oid ma'lumotlar tahlili ham o'rin olgan. Xorijiy arxivlar tajribasiga ko'ra, qimmatlilik ekspertizasi jarayonida hujjatlarning turi, soni, dublikatlari hamda ekspertlar miqdoridan kelib chiqib, turli ranjlash⁶⁵, ya'ni ularni ekspertizasini tashkil etishda ballik baholash tizimidan foydalanish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Masalan, ayrim ko'rsatkichlarni taqqoslashda – to'g'ridan-to'g'ri ranjlash, dublikat hujjatlarni farqlashda – muqobil ranjlash, hujjatning o'ziga xos jihatlarini aniqlashda – o'zgaruvchan ranjlash, hujjatlarni bosqichma-bosqich solishtirish zarur bo'lganda esa – juftlashgan ranjlash usuli qo'llanadi⁶⁶.

Ta'kidlash lozimki, hujjatlarning qimmatlilik ekspertizasini erostatik tahlillar asosida modernizatsiya qilish bugungi arxivshunoslik va hujjatshunoslik amaliyotida muhim ahamiyat kasb etadi. Avvalo, hujjatlar haqida keng qamrovli ma'lumotlarni yig'ish zarur bo'lib, hujjatning turi, saqlanish muddati, muallifi, mazmuni va boshqa ko'rsatkichlar tizimli ravishda qayd etilishi kerak. Bu ma'lumotlar kelgusida amalga oshiriladigan tahlillar uchun poydevor vazifasini bajaradi hamda elektron ma'lumotlar bazasining shakllanishiga asos bo'ladi. Shuningdek, mazkur tahlil hujjatlarning ishonchliligi, dolzarbligi, tarixiy, madaniy va ilmiy ahamiyatini aniqlash imkonini beradi. Shu orqali hujjatlarning haqiqiy qiymati baholanadi va arxiv fondlarini to'g'ri shakllantirish imkoniyati yaratiladi.

Vaqt o'tishi bilan arxiv sohasini axborotlashtirish fuqarolarning axborot olish huquqini ta'minlash, jamiyat va davlat so'rovlarini bajarish, arxiv hujjatlaridan keng foydalanishni ta'minlashning eng samarali vositasidir. Arxiv hujjatlarining elektron nusxalariga Internet tarmog'i orqali masofadan kirish imkoniyatiga ega mavzuli

⁶⁴ O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi "O'zarxiv" agentligi bosh direktorining 14.02.2012 buyrug'iga ilova. Qarang: 29.03.2012-yilda №2347 son bilan ro'yxatdan o'tgan "Hujjatlarning qimmatligini aniqlash ekspertizasini o'tkazish tartibi to'g'risida"gi Nizom.

⁶⁵ Ranjlash usuli – bu ma'lum obyektlar yoki hodisalarni ularning barchasiga xos bo'lgan ba'zi xususiyatlarning ko'tarilish yoki kamayish tartibida joylashtirishni o'z ichiga olgan usul.

⁶⁶ Абдуллаев А.Х. Методы, модели и алгоритмы информационно-документационного и метрологического обеспечения архивной деятельности государственных организаций. Автореф. дис. ... д-ра тех. наук. – Ташкент, 2022. – С. 126.

axborot-qidiruv tizimlari va ma'lumotlar bazalarining yaratilishi, shubhasiz, barcha manfaatdor fuqarolar va tashkilotlarning arxiv ma'lumotlaridan foydalanish muammosini hal etishga xizmat qilmoqda. Axborot texnologiyalari, telekommunikatsiya tarmoqlari va O'zbekiston Respublikasi arxivlarida saqlanayotgan hujjatlardan foydalanuvchilarga masofadan keng foydalanish imkoniyatini yaratuvchi tizimlarning jadal rivojlanishi hamda tarqalishi munosabati bilan "O'zarxiv" agentligiga elektron repozitoriyni yaratish zaruriyati tug'ildi.

Dissertatsiyada repozitорий saqlovxonalariga oid ma'lumotlar tahliliga ham alohida e'tibor qaratilgan. "Repozitорий" atamasi aslida yagona axborot-qidiruv tizimida tashkil etilgan ma'lumotlar omborini, shu jumladan, tarmoq bo'ylab keyingi tarqatish uchun mavjud bo'lgan ma'lumotlar fayllarini anglatadi⁶⁷. Yaratilgan repozitорий tematik elektron ko'rinishida taqdim etilgan bo'lib, u global ma'lumotlarni uzatish tarmoqlari orqali elektron hujjatlar to'plamlarini qayta ishlash, saqlash, tarqatish, tahlil qilish va qidirishni tashkil etish imkonini beradi.

Amalda zamonaviy ish yuritish idoralarida elektron hujjatlarni saqlashni to'g'ri va optimal tashkil etish bo'yicha yagona Elektron repozitoriyni tashkil etish taklif etiladi. Mazkur taklif kelgusida davlat organlari tomonidan elektron hujjatlarning saqlovini tashkil etishda juda katta miqdorda (4 mlrd so'mdan – 100 mlrd so'mgacha) budjet mablag'larini tejash imkonini beradi.

Yana bir muhim konseptual islohot arxiv hujjatlarini raqamlashtirish va saqlash bo'yicha yangi texnologiyalarni joriy etish bo'ldi. Xususan, "Axborot texnologiyalari va axborot resurslarini rivojlantirish markazi" DUK tomonidan "Davlat arxivlarida raqamlashtirilayotgan hujjatlarni yagona saqlovini ta'minlash hamda ulardan foydalanish" axborot tizimi ishlab chiqildi⁶⁸. Bu arxiv hujjatlaridan foydalanuvchilar uchun qulayroq foydalanish imkonini beradi va arxiv hujjatlari butligini saqlagan holda ularni shikastsiz doimiy saqlash imkoniyatini beradi.

Shundan kelib chiqib, O'zbekiston Respublikasi Milliy arxiv fondi (MAF)ning alohida qimmatli hujjatlari elektron shaklini yaratish ishlari jadallashtirilishiga erishilganligi va MAFga kiritilgan alohida qimmatli hujjatlarni 2015-2017-yillarda raqamlashtirish Reja-dasturiga asosan hisobot davrida O'zbekiston Respublikasi markaziy davlat arxivlarida 2 595 saqlov birligidagi, shu jumladan, 409 551 varaq qog'oz, 212 ta kino, 33 862 ta surat, 308 ta ovoz hujjatlarining elektron nusxalari hamda 3 425 saqlov birligidagi qog'oz asosdagi va 26 950 hisob birligidagi surat hujjatlardan 98 192 ta bibliografik ma'lumotlari yaratilganligi aks etgan⁶⁹. 2025-yil yarim yilligiga O'zbekiston milliy arxivlari va respublika davlat arxivlari tomonidan jami 1,18 mln. saqlov birligidagi 87,6 mln. kadr raqamlashtirildi. 2025-yil 2-choragi davomida O'zbekiston milliy arxivlari va respublika davlat arxivlari tomonidan 54,8 ming. saqlov birligidagi 6,0 mln. kadr raqamlashtirildi. Hisobot davrida "Davlat arxivlarida raqamlashtirilayotgan hujjatlarni yagona saqlovini ta'minlash hamda

⁶⁷ Рождественская М. Ю. Репозиторий как реализация идей открытого доступа к научным публикациям: подходы к классификации // Библиосфера, 2015. – № 2. – С. 86.

⁶⁸ O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 18-yanvardagi muhokama majlisi 1-son bayoni (№ 01-08/1-2840) hamda O'zbekiston Respublikasi Bosh vazirining maslahatchisining 2021-yil 12-yanvardagi 08/1-3087-son topshirig'i.

⁶⁹ 2016-yil yakunlari bo'yicha "O'zarxiv" agentligi yillik hisobotidan.

ulardan foydalanish” axborot tizimiga jami 672 527 ta ma’lumotlar kiritildi, shundan 890 ta ro‘yxat, 187 330 saqlov birligi, 484 220 ta hujjat to‘g‘risidagi ma’lumotlar kiritildi.

Ta’kidlash lozimki, markazlashgan elektron arxivlarni tashkil etishning konseptual yechimlari arxiv sohasini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. Ushbu tizim nafaqat axborot olish huquqini ta’minlash, balki arxiv hujjatlarini saqlash va ishlatishda samaradorlikni oshirish imkonini beradi. Arxivlar uchun yagona elektron repozitoriyni tashkil etish, texnik va tashkiliy jihatdan to‘g‘ri ishlab chiqilgan holda, katta iqtisodiy va tezkor natijalarni qo‘lga kiritish mumkin. Ta’kidlab o‘tilgan yechimlar xavfsizlik, ishonchlilik, texnik qulaylik va moliyaviy tejash kabi omillarni hisobga olgan holda, elektron arxivlarni rivojlantirish va integratsiya qilish davlat boshqaruvidagi samaradorlikni sezilarli darajada oshiradi.

XULOSA

O‘zbekistonda axborot tashuvchi vositalar tarixi va hujjatlar saqlovini ta’minlash tamoyillari mavzusidagi dissertatsiya yuzasidan quyidagi xulosalarga kelindi:

1. Axborot tashuvchilarning har biri muhim manbalar hisoblanib, ular turli davrda axborotni saqlash va hujjatlashtirish masalalarini aniqlash imkonini beradi. Axborot tashuvchi vositalar inson sivilizatsiyasining rivojlanishida va axborot almashinuvida muhim o‘rin tutgan.

2. Insoniyat tarixida axborot tashuvchi vositalar doimiy ravishda takomillashib bordi, ammo ularning asosiy xususiyatlari saqlanib qoldi. XX asr oxirida esa fan va texnika taraqqiyoti natijasida elektron axborot tashish vositalarining keng ommalashishiga olib keldi.

3. Elektron axborot tashuvchilarning dastlabki ko‘rinishi sifatida perfokarta, magnit lenta va optik magnit disklar sifatida rivojlanib keyingi kashf etilgan blokcheyn, bulutli (cloud) saqlash kabi raqamli texnologiyalar ularni qisman muomaladan chiqib ketishiga olib keldi.

4. O‘zbekiston Respublikasida elektron hujjatlar bilan ishlash va ularni saqlash bo‘yicha normativ-huquqiy bazasi yaratilgan. Amalda qonun hujjatlarida Elektron arxiv atamasiga huquqiy ta’rif berilmagan. Shuningdek, qonun hujjatlarida elektron hujjatga oid xalqaro standartlashtirish borasidagi huquqiy atamalarni qo‘llash tajribasi joriy etilmagan.

5. Elektron axborot tashuvchi vositalarining ommalashuvi natijasida axborot olish va almashinuvida tezkorlik, resurslar va vaqtning tejalihi kabi qulayliklar kuzatildi, ammo elektron hujjatlarni doimiy saqlash borasidagi muammolar to‘liq o‘z yechimini topmadi.

6. Arxiv ma’lumotlarini saqlash va ularni qayta ishlash jarayonida hujjatlar qimmatdorligini ekspertiza qilish, qimmatlilik darajasi, ishonchliligi hamda ularning tarixiy, madaniy yoki ilmiy ahamiyatini tahlil qilishda texnik sohada keng qo‘llanilib kelinayotgan erostatik (qayta taftish) tahlil modeli asosida doimiy saqlanishi lozim bo‘lgan hujjatlarni texnik xatoliklar sababidan yo‘q bo‘lib ketishini oldini oladi.

7. Axborotdan kelgusida takroriy foydalanish maqsadida hujjatlarni ish yuritish, idoraviy saqlov va davlat arxivi saqlov bosqichlarida ham saqlash vositalaridagi axborot matni hamda mazmuni o‘zgaras bo‘lib qolishi lozim.

8. Mamlakat miqyosidagi korxonalar va tashkilotlardan elektron hujjatlarni arxivga topshirishni amaliyotga keng tatbiq eta oladigan mutaxassis kadrlar yetishmasligi muammolari mavjud.

9. O‘zbekistonda arxiv sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar arxiv hujjatlarining foydalanish uchun ochiq bo‘lishi, saqlanishi va kelajak avlodga yetkazish uchun xizmat qiladi. Shuningdek, arxiv hujjatlaridan foydalanish, saqlovini ta‘minlash va ularni ilmiy iste‘molga kiritish samaradorligini oshishiga olib keldi.

Tadqiqot materiallari va ilmiy-nazariy xulosalar asosida quyidagi **taklif** hamda **tavsiyalar** ishlab chiqildi:

1. 70320301 – Hujjatchilik, hujjatshunoslik va arxivshunoslik magistratura mutaxassisligi o‘quv rejasiga “Arxiv hujjatlarini erostatik ekspertizasi” nomli kursini joriy etish;

2. Davlat hokimiyati va boshqaruv organlarida shakllangan, davlat arxivlaridagi alohida qimmatli, shu jumladan, raqamlashtirilgan tarixiy hujjatlarni istiqbolli saqlovini tashkil qilish maqsadida iyerarxik elektron repozitoriy (elektron hujjatlar saqlovxonasi)ni tashkil etish.

3. Tarixiy va alohida qimmatli arxiv hujjatlarning sug‘urta nusxalarini yaratishda mikrofilmlash laboratoriyalarini barcha davlat arxivlarida joriy etish.

4. Davlat hokimiyati va boshqaruv organlarida an‘anaviy (qog‘ozli) hamda elektron shaklda yaratilishi mumkin bo‘lgan hujjatlarning namunaviy klassifikatorini amaliyotga joriy etish.

**РАЗОВЫЙ СОВЕТ НА ОСНОВЕ НАУЧНОГО СОВЕТА ПО
ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЕННЫХ СТЕПЕНЕЙ DSc.03/30.12.2019.Tar.01.04
ПРИ НАЦИОНАЛЬНОМ УНИВЕРСИТЕТЕ УЗБЕКИСТАНА**

НАЦИОНАЛЬНЫЙ УНИВЕРСИТЕТ УЗБЕКИСТАНА

АЛИЕВ АНВАРЖОН ОРИФЖОНОВИЧ

**ИСТОРИЯ СРЕДСТВ НОСИТЕЛЕЙ ИНФОРМАЦИИ
В УЗБЕКИСТАНА И ПРИНЦИПЫ ОБЕСПЕЧЕНИЯ
СОХРАННОСТИ ДОКУМЕНТОВ**

05.01.09 – Документоведение. Архивоведение. Библиотечковедение

**АВТОРЕФЕРАТ
диссертации доктора философии (PhD) по историческим наукам**

Ташкент – 2025

Тема диссертации на соискание ученой степени доктора философии (PhD) зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Узбекистан за B2025.1.PhD/Tar2162

Диссертация выполнена в Национальном университете Узбекистана.

Автореферат диссертации на трёх языках (узбекский, русский, английский (резюме)) размещен на веб-странице (www.ik-tarix.nuu.uz) и на Информационно-образовательном портале «ZiyoNET» (www.ziyo.net.uz).

Научный руководитель: Абдуллаев Абдушукур Хамидович
доктор технических наук, доцент

Официальные оппоненты: Ишанходжаева Замира Райимовна
доктор исторических наук, профессор

Уринкулов Одилжон Назиралиевич
доктор философии (PhD) по техническим наукам

Ведущая организация: Андижанский государственный университет

Защита диссертации состоится на заседании разового совета на основе Научного совета по присуждению ученых степеней DSc.03/30.12.2019.Tar.01.04 при Национальном Университете Узбекистана «24» 11 2025 года в 14⁰⁰ часов (адрес: 100174, г. Ташкент, ул. Мирзо Голиба, исторический факультет Национального университета Узбекистана, 1-этаж, 110-аудитория). Тел.: (+99871) 227-12-24; факс: (+99871) 246-53-21, (+99871) 246-02-24; E-mail: auka@nuu.uz (Национальный университет Узбекистана).

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Национального университета Узбекистана (зарегистрировано под номером 184) (Адрес: 100174, город Ташкент, улица Университетская, дом-4. Главный корпус). Тел.: (+99871) 236-46-55; факс: (+99871) 246-02-24.

Автореферат диссертации разослан «10» 11 2025 года.
(протокол реестра за номером 28 от «7» 10 2025 года)



Jul **Х.Э. Юнусова**
Председатель разового совета на основе Научного совета по присуждению ученых степеней, д.и.н., профессор

Shah **Ж.Э. Тогаев**
Ученый секретарь разового совета на основе Научного совета по присуждению ученых степеней, д.ф.и.н. (PhD), доцент

Mus **Н.У. Мусаев**
Председатель разового научного семинара на базе Научного совета по присуждению ученых степеней, д.и.н., профессор

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и востребованность темы диссертации. В мире, переживающем критический период трансформации сетей информационного документирования, цифровизации, мобилизации, оптимизации документооборота и внедрения искусственного интеллекта в архивную сферу, обеспечение достоверности архивных документов и внедрение цифровых технологий в архивную сферу становится одной из важнейших задач. Наряду с бурным развитием информационно-коммуникационных технологий вопросы обеспечения сохранности информационных потоков и ресурсов, включая растущие потребности в информации, приобретают актуальное значение.

Ведущие научно-исследовательские институты, архивы и библиотеки мира проводят научные и практические исследования по вопросам повышения эффективности использования архивной информации посредством документирования и оцифровки, архивоведения, электронных архивов, сохранения цифровых копий архивных фондов. Необходима разработка стратегических программ, направленных на изучение и популяризацию исторических документов, совершенствование нормативно-правовой базы деятельности архивов, модернизацию инфраструктуры архивов, внедрение новых инновационных технологий в архивное дело, проведение работ по оцифровке архивных документов.

В целях дальнейшего развития исторической науки в новом Узбекистане особое внимание уделяется совершенствованию направлений архивоведения, архивного источниковедения, документоведения, определению исторической источниковой значимости документов и созданию цифрового наследия исторических документов. «Национальная история должна создаваться в национальном духе. В противном случае она не будет иметь воспитательного эффекта. Мы должны научить нашу молодёжь учиться на истории, делать выводы, вооружить её исторической наукой и историческим мышлением»¹. Для осуществления информационного обмена между информационными системами государственных органов, эффективной организации использования электронных документов в архивных учреждениях Узбекистана большое значение имеют современные условия, созданные в архивах. В этой связи доступность архивных документов связана с сохранением документального наследия, и вместе с тем среди общих проблем сохранения документальной информации важное значение имеет проведение исторических исследований по вопросу физической (материальной) сохранности документального наследия.

Данная научно-исследовательская работа в определённой мере послужит реализации задач, обозначенных в Указе Президента Республики Узбекистан от 20 сентября 2019 года № УП-5834 «О мерах по совершенствованию

¹ Мирзиеев Ш. Национальную историю нужно создавать с национальным духом. Иначе не будет воспитательного эффекта // Народное слово, 2021. 20 января. – № 13 (7793). – С. 1.

архивного дела и управления в Республике Узбекистан», Указе Президента Республики Узбекистан от 24 мая 2024 года № УП-80 «О дальнейшем повышении ответственности органов и учреждений юстиции в рамках административной реформы и формировании компактной системы управления», Постановлении №ПП-4463 «О совершенствовании деятельности Агентства Республики Узбекистан «Узархив»» и других нормативно-правовых актах в данной сфере..

Связь исследования с приоритетными направлениями развития науки и технологии республики. Данное исследование выполнено в рамках приоритетного направления республиканской программы научно-технического развития по теме I. «Формирование системы инновационных идей и путей их реализации в социально-правовом, экономическом, культурно-духовном и образовательном развитии информационного общества и демократического государства».

Степень изученности проблемы. Исследования, проведённые по данной теме на сегодняшний день, можно разделить на отечественные и зарубежные.

Первая группа исследователей И.А.Алимов сосредоточил внимание на теоретических проблемах архивоведения², М.С.Исакова и Д.А.Зайтова сосредоточили внимание на развитии архивного дела в годы независимости, внедрении новых технологий, проблемах подготовки кадров³, О. Рашидов остановился на исторических этапах архивного дела в Узбекистане⁴. Также М.А.Рахматуллаев осветил современные подходы к использованию современных информационных технологий в библиотеках⁵, М.М. Эргашева проблемы хранения данных в библиотеках и проводимые в этой сфере реформы⁶, А.Х. Абдуллаев создание баз данных для хранения электронных документов в архивах⁷, Б.М. Ахмедов и М.Д. Абдурахимов⁸ осветили аспекты создания системы электронного каталога в архивах, А.Ю.Назаров сосредоточил внимание на теоретических вопросах создания электронных баз данных и каталогов архивных документов, а также создания современных систем управления в сфере архивного дела⁹.

² Алимов И.А. Архившунослик ўқув қўлланма. – Андижон.: 2005.;

³ Исакова М. Становление и развитие архивного дела в Узбекистане. – Ташкент: Университет, 2012. 205 стр.; Зайтова Д.А. Развитие архивного дела в Республике Узбекистан. Журнал «ВЕСТНИК АРХИВИСТА». Январь 2019 г. (<https://www.vestarchive.ru/arhivovedenie/4017-razvitie-arhivnogo-dela-v-respyblike-yzbekistan.html>);

⁴ Rashidov O. O'zbekistonda arxiv ishi tarixi. – Toshkent: Navro'z, 2019.

